



SHARQ MUMTOZ ADABIYOTIDA ARBA'IN YOZISH AN'ANASI VA NAVOIYNING ARBA'IN ASARI MANBASHUNOSLIK TADQIQI

Toxtayev Ilhomjon Erkin o'g'li

Imom Buxoriy nomidagi Toshkent islom

Instituti bakalavr bosqichi 4-kurs talabasi

netmuhammadsaid@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Sharq mumtoz adabiyotidagi arba'in yozish an'anasining shakllanish va takomillashish bosqichlari tizimli ravishda tahlil qilingan. Tadqiqotda mazkur janrning arab ilmiy muhitidagi dastlabki ildizlaridan boshlab, fors va turkiy adabiyotlardagi yuksak badiiy takomili jarayoni ko'rsatib berilgan. Maqolada Imom Navaviy, Jomiy, Navoiy va Fuzuliy kabi mutafakkirlarning arba'in janri rivojidadagi o'rni, shuningdek, janrning hadisshunoslik va badiiy tafakkur tutashgan nuqtadagi o'ziga xos xususiyatlari yoritilgan. Bundan tashqari Navoiyning "Arba'in" asari alohida tahlil qilingan. Xulosada arba'inning ma'rifiy, didaktik va estetik vazifalari hamda zamonaviy sharqshunoslikdagi o'rni bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Arba'in, qirq hadis, Sharq mumtoz adabiyoti, janr taraqqiyoti, poetika, hadis ilmi, Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Muhammad Fuzuliy, ma'rifat, badiiy talqin.

Abstract: This article provides a systematic analysis of the stages of formation and evolution of the "Arba'in" (forty hadiths) writing tradition in Eastern classical literature. The study traces the development of the genre from its initial roots in the Arabic scholarly environment to its high artistic perfection in Persian and Turkic literatures. The article highlights the contributions of thinkers such as Imam Nawawi, Jami, Navoi, and Fuzuli to the advancement of the Arba'in genre, as well as its unique characteristics at the intersection of hadith



studies and literary thought. In conclusion, the educational, didactic, and aesthetic functions of Arba'in, along with its significance in modern Oriental studies, are discussed.

Keywords: Arba'in, forty hadiths, Eastern classical literature, genre evolution, poetics, hadith studies, Alisher Navoi, Abdurrahman Jami, Muhammad Fuzuli, enlightenment, artistic interpretation.

KIRISH.

Sharq mumtoz adabiyotida arba'in janri o'zining diniy, ma'rifiy va badiiy mohiyati bilan alohida o'rin tutadi. "Arba'in" so'zi arab tilidan olingan bo'lib, lug'aviy jihatdan "qirq" ma'nosini anglatadi, istilohiy jihatdan esa odatda qirq hadisdan iborat to'plamni bildiradi¹. Ushbu janrning shakllanishi bevosita islomiy ilmiy an'ana, xususan hadis ilmi bilan chambarchas bog'liq. Bu an'ananing shakllanishida Rosululloh (sollallohu alayhi vasallam)ning quyidagi hadislarini asosiy ta'sir vositasi sifatida ko'riladi.

Ibn Abbos roziyallohu anhumodan rivoyat qilinadi Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam) shunday dedilar: *"Ummatimdan kim qirq hadisni odamlarga ta'lim berish uchun yodlasa, men qiyomat kuni unga shafatchi va guvoh bo'laman"*².

Arba'in janrining shakllanish jarayoni dastlab hadis ilmi doirasida yuzaga kelib, keyinchalik adabiy shaklga o'ta boshlagan. Ilmiy va didaktik ehtiyojlar esa ushbu an'ananing shakllanishida hal qiluvchi rol o'ynagan, chunki murakkab hadis ilmini ixcham va tushunarli shaklda yetkazish zarurati mavjud edi. Nazariy manbalarda arba'in an'anasini hadis ilmi bilan adabiy tafakkur kesishgan nuqtada shakllangan janr sifatida talqin qilinadi.

Arba'in yozish an'anasining dastlabki shakllanish bosqichi arab ilmiy muhitida yuzaga kelgan bo'lib, bu jarayon ilk muhaddislar faoliyati bilan

¹ Hasanson va Husayxon Yahyo Abdulmajid. Navoiydan chu topqaylar navoye. – T.: hilol-nashr, 2014. – B.30.

² Abu Bakr Ahmad ibn Husayn Bayhaqiy. Shu'abul imon / Muxtor ibn Ahmad Nadaviy tahriri ostida. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiyya, 2000. – J. 2. – S. 270.



bog'liqdir. Hadislarni to'plash, ularni isnod asosida tekshirish va sahih hadislarni ajratib olish jarayoni aynan shu davrda tizimlashgan. Qirq hadis to'plash an'anasi ham shu ilmiy ehtiyoj natijasida yuzaga kelib, dastlab ilmiy-ma'rifiy xarakter kasb etgan. Bu bosqichda hadis tanlash mezonlari — sanad, roviylarning ishonchliligi va matnning shoz va illatlardanholi ekani asosiy ahamiyatga ega bo'lgan. Masalan, imom Buxoriy va Muslimning sahih to'plamlari hadis ilmining eng yuqori namunasi sifatida e'tirof etilib, keyingi arba'inlar uchun asos bo'lib xizmat qilgan. Ilk arba'in to'plamlarida hadislar ko'pincha sharhsiz yoki qisqa izohlar bilan berilgan bo'lib, ularning asosiy maqsadi diniy bilimlarni jamlash va keying avlodga yetkazishdan iborat edi. Shu bilan birga, diniy muhit va ilmiy maktablar — masalan, hadis ilmi markazlari — bu an'ananing keng tarqalishiga katta ta'sir ko'rsatgan.

IX–XII asrlarga kelib, arba'in tuzish an'anasi klassik shakllanish bosqichiga o'tadi va hadis ilmining rivoji bilan birga yanada mukammallashadi. Bu davrda hadis ilmi tizimlashib, alohida fan sifatida shakllanganligi sababli arba'in janri ham mustaqil shakl sifatida ajralib chiqadi. Aynan shu davrda **Imom Navaviy**³, **Imom Ojuriy**⁴, **Imom Qushayriy**⁵ kabi muhaddislar tomonidan yozilgan arba'in to'plamlari mazkur janrning hadisshunoslikdagi asoslarini shakllantirgan.

Bu to'plamlarda hadislar mavzular bo'yicha tanlanib, axloq, iymon, ibodat va ijtimoiy munosabatlar kabi masalalarni qamrab oladi. Ilmiy mezonlarning mustahkamlanishi natijasida hadis tanlash yanada qat'iy tartibga solinadi, bu esa janrning ishonchliligini oshiradi. Shu bilan birga, arba'inlar ta'lim tizimida ham muhim o'rin egallab, madrasalarda o'quv qo'llanma sifatida foydalanila boshlaydi. Masalan, talabalarga qisqa va muhim hadislarni o'rgatishda arba'inlar

³ Imom Navaviy. Al-arbaiyn an-navaviya. – Qohira: doru-s-salom,2007.

⁴ Imom Ojuriy. Arbaiyn. – Riyoz: azvou-s-salaf, 2000.

⁵ Abulqosim Abdulkarim ibn Havozin Qushayriy. Al-arba'iyin fi tashihi-l-muomala. – Urdun: dor al-fath,2013.



qulay vosita bo'lgan. Ulamolar orasida ushbu an'ananing keng tarqalishi esa uning diniy va ilmiy ahamiyatini yanada oshirgan.

ASOSIY QISM.

Fors adabiyotida arba'in tuzish an'anasining takomillashuv bosqichini yoritishda Ahmad Ahmadiyning "Fors adabiyotida qirq hadis an'anasi" tadqiqoti esa fors-tojik adabiyotidagi ushbu janrning tarixiy rivojini izchil kuzatgan⁶. Olim fors adabiyotida "qirq hadis" an'anasi oddiy diniy to'plam shaklidan chiqib, badiiy-estetik va irfoniy mazmun bilan boyiganini ta'kidlaydi. Uning kuzatishlariga ko'ra, hadislarni nazmga o'tkazish forsiy muhitda keng yo'lga qo'yilib, bu holat janrning didaktik qimmatini saqlagan holda estetik ta'sirchanligini oshirgan. Shunday qilib, fors adabiyotida arba'in janri diniy ta'lim bilan badiiy tafakkur uyg'unlashgan shakl sifatida takomillashgan⁷.

P. Losensky fors adabiyoti doirasida taqlid va individual ijodkorlik masalasini tahlil qilar ekan, Jomiygacha va Jomiy davrida shakllangan poetik an'analarning ijodiy qayta ishlanishiga alohida e'tibor qaratadi. Uning fikricha, hadislarni nazmga solish jarayonida shoirlar tayyor an'anani takrorlamagan, balki unga o'z poetik ohangi va ma'naviy talqinini singdirgan. Bu jihat arba'in janrining badiiy imkoniyatlarini kengaytirib, uni sof tarjima yoki sharh darajasidan yuqoriga ko'targan.⁸

Maria Subtelny⁹ temuriylar davri madaniy muhitini o'rganar ekan, Jomiy va Navoiy yashagan davrda diniy-adabiy matnlarning saroy, madrasa va tasavvufiy doiralarda birdek faol muomalada bo'lganini ko'rsatadi. Shu nuqtai nazardan, arba'in an'anasi ham aynan shu ko'p qatlamli madaniy makonda takomillashgan. Olimning qarashlari Jomiy an'anasining nafaqat shaxsiy ijod

⁶ Ahmad Ahmadiy. Fors adabiyotida qirq hadis an'anasi. – Tehron: Tehron universiteti, 2005.

⁷ Ahmadi A. Forty hadith in Persian literature. – Tehran: Tehran University, 2005. – B.50-58.

⁸ Losensky P. Welcoming Fighani: imitation and poetic individuality. – USA: Indiana University, 1998. –B.140.

⁹ Maria E. Subtelny. Timurids in Transition (Navoi and Jami context). – Toronto: Toronto universiteti, 2007.



mahsuli, balki umumiy temuriy adabiy-estetik muhit natijasi ekanini tushunishga yordam beradi.¹⁰

Fors adabiyotida shakllangan va sayqallangan ushbu an'ana turkiy muhitga o'tganda yangi bosqichga ko'tariladi. Bu jarayonni umumiy hadis adabiyoti kontekstida tushuntirishda **I. L. Chakanning** qarashlari muhimdir. U hadis adabiyotining turlari va xususiyatlarini sharhlar ekan, qirq hadis tuzish an'anasi diniy bilimlarni ixcham va ta'sirchan shaklda yetkazish usuli bo'lganini ta'kidlaydi. Aynan shu ilmiy-didaktik poydevor keyinchalik turk adabiyotida she'riy arba'inlarning shakllanishiga zamin yaratgan.¹¹

Turk adabiyotidagi rivojlanish bosqichini o'rganishda **A. Karahanning** "Fuzulî'nin kırk hadis tercümesi" asari alohida ahamiyatga ega. Olim Fuzuliy ijodida hadis tarjimasini oddiy semantik ko'chirish emas, balki poetik qayta yaratish jarayoni ekanini ko'rsatadi. Bu holat she'riy arba'inlarning kengayishi, hadis mazmunining lirizm va tasavvuf bilan boyishi, janrning estetik salohiyati ortganini tasdiqlaydi.¹²

K. E. Kurkchuog'lu ham turk adabiyotidagi qirq hadis tarjimalarini tadqiq etar ekan, hadislarning turkiy tilga moslashuvi masalasiga e'tibor qaratadi. Uning kuzatishlariga ko'ra, tarjima jarayonida diniy matnning mazmuniy aniqligi saqlanadi, biroq ifoda vositalari milliy poetik did va til imkoniyatlariga moslashtiriladi. Bu esa arba'inning keng ommalashuviga xizmat qilgan eng muhim omillardan biri bo'lgan.¹³

Turk-islam adabiyotidagi umumiy tarixiy jarayonni tizimli ravishda yoritishda **A. Karahanning** "İslam-Türk edebiyatında kırk hadis toplama, tercüme ve şerhleri" nomli fundamental tadqiqoti tayanch manba vazifasini

¹⁰ Subtelny M. E. Timurids in transition (Navoi and Jami context). – Toronto: University of Toronto, 2007. – B.180-181.

¹¹ Çakan İ. L. Hadis edebiyatı: çeşitleri, özellikleri. – İstanbul, 1985. –B. 45.

¹² Karahan A. Fuzulî'nin kırk hadis tercümesi. – İstanbul: İstanbul Üniversitesi, 1951. – B.60.

¹³ Kürkçüoğlu K. E. Kırk hadis tercemesi. – Ankara: Ankara Üniversitesi, 1951. – B.25-55.



bajaradi. Unda qirq hadis to'plash, tarjima qilish va sharhlash an'anasi bosqichma-bosqich ko'rsatilib, janrning diniy, ilmiy va adabiy tabiati ochib beriladi. Aynan shu yondashuv turk adabiyotida arba'inning mustaqil poetik an'anaga aylanganini ilmiy jihatdan asoslaydi.¹⁴

Turkiy muhitdagi ushbu an'ananing yuksak namunalaridan biri sifatida **H. Arasli** Fuzuliy ijodini tahlil qilib, unda diniy mazmun bilan badiiy mahoratning uyg'unlashganini ko'rsatadi. Olimning fikricha, Fuzuliy qirq hadis tarjimasi orqali diniy matnni nafaqat xalq tiliga yaqinlashtirgan, balki uni yuksak estetik ifoda darajasiga ko'targan. Bu esa she'riy arba'inlarning janr sifatida yanada nufuz topishiga xizmat qilgan.¹⁵

S. Eliyeva Fuzuliyning diniy-tasavvufiy qarashlarini tahlil etar ekan, uning hadisga munosabatida ichki ma'naviy poklanish, ilohiy ishq va komillik masalalari ustuvor ekanini qayd etadi. Bu jihat shuni ko'rsatadiki, turk adabiyotida arba'in an'anasi faqat axloqiy-didaktik emas, balki tasavvufiy-irfoniy qatlam bilan ham boyigan.¹⁶

H. Boltaboyev Markaziy Osiyo mumtoz so'z san'ati kontekstida arba'in janriga yondashib, bu an'ananing mumtoz poetika va ma'naviy qadriyatlar tizimidagi o'rnini belgilaydi. Uning fikricha, hadislarni she'riy talqin qilish jarayoni Sharq adabiyotida so'z qadri, ma'no teranligi va ma'rifiy vazifa bilan uzviy bog'langan. Shu bois Markaziy Osiyoda arba'in janri adabiy va axloqiy tarbiya vositasi sifatida mustahkam o'rin olgan.¹⁷

N. Jabborov Navoiy ijodidagi ma'rifiy yo'nalishni tahlil qilar ekan, hadis va oyatlarning badiiy talqini o'zbek mumtoz adabiyotida ma'rifat tarqatishning samarali shakliga aylanganini ko'rsatadi. Bu nuqtai nazardan qaraganda, arba'in Markaziy Osiyoda madrasa va adabiy muhit orasida ko'prik vazifasini bajargan:

¹⁴ Karahan A. Fuzulî'nin kırk hadis tercümesi. – İstanbul: İstanbul Üniversitesi, 1951. – B. 35.

¹⁵ Araslı H. Böyük Azərbaycan şairi Füzuli. – Bakı: Azərbaycan EA, 1958.

¹⁶ Əliyeva S. Məhəmməd Füzulinin dini-təsəvvüfi görüşləri. – Bakı: AMEA, 2007.

¹⁷ Boltaboyev H. Mumtoz so'z qadri. – Toshkent: O'zMU, 2004. – B. 150.



u bir tomondan diniy bilim bergan bo'lsa, ikkinchi tomondan estetik didni tarbiyalagan.¹⁸

S. Ayniyning Fuzuliy “Terceme-i hadîs-i erba’in”iga bag‘ishlangan tadqiqoti kompozitsion takomillashuv masalasini ochishda muhimdir. Muallif matn, til xususiyatlari va lug‘aviy qatlamni tahlil qilib, qirq hadisli asarlarda tuzilish, bayon tartibi va ifoda me‘yorlari asta-sekin standartlashganini ko‘rsatadi. Bu esa kompozitsion takomilning faqat mazmun bilan emas, balki til va shakl bilan ham bog‘liq ekanini tasdiqlaydi.¹⁹

A. Kerimov Fuzuliyning “Hadisi-ərbəin” tarjimasini o‘rganar ekan, hadislar poetik matnga aylanganda ichki lirik harakat, majoz va ruhiy kechinma kuchayishini qayd etadi. Uning tadqiqoti nazm va nasr uyg‘unligi, sharh va poetik ifoda o‘rtasidagi nisbatni tushunishda muhim ahamiyatga ega. Shu jihatdan, kompozitsion takomillashuv jarayonida hadis matni va uning badiiy talqini o‘rtasida barqaror model yuzaga kelgani ko‘rinadi.²⁰

J. R. Suvonova zamonaviy ilmiy maqolasida arba’inlarni “ahli adab imosi” sifatida baholab, mazkur janrda ma’rifiylik, badiiylik va diniy mazmun uyg‘unlashganini ta’kidlaydi. U hadislarning she’riy shaklda talqin qilinishi natijasida ular nafaqat o‘qiladigan, balki his etiladigan matnga aylanishini ko‘rsatadi. Bu yondashuv janrning estetik ta’sir mexanizmini tushuntirishga yordam beradi.²¹

M. B. Eshniyazova esa Alisher Navoiy ma’rifiy-adabiy asarlaridagi kichik lirik janrlar poetikasini o‘rganib, “Arba’in”ning turkiy adabiyotdagi yangi bosqich ekanini asoslaydi. Olimaning ta’kidlashicha, Navoiy hadislarni turkiy tilga moslashtirish jarayonida ularni ixcham, obrazli va ta’sirchan shaklda qayta

¹⁸ Jabborov N. Ma’rifat navosi. – Toshkent: ToshDO‘TAU, 2012. – B. 90.

¹⁹ Ay S. Fuzulî’nin terceme-i hadîs-i erba’in’i (metin–dil özellikleri–sözlük): magistrlik dissertatsiyasi. – 2019.

²⁰ Kərimov A. Füzulinin hadisi-ərbəin tərcüməsi və onun lirikası. – 2014. – B.75-80.


²¹ Suvonova J. R. Arba’inlar jilosi – ahli adab imosi // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2024. – Vol. 4, No. 4 (April). – B. 204.



yaratgan. Bu esa nafaqat janrning ommalashuviga, balki uning kompozitsion va poetik takomiliga ham xizmat qilgan. Natijada, forsiy va turkiy an'analar tutashgan nuqtada arba'in tuzish an'anasi mukammal diniy-badiiy janr sifatida qaror topgan.²²



²² Eshniyazova M. B. Alisher Navoiyning ma'rifiy-adabiy asarlarida kichik lirik janrlar poetikasi: filol. fan. bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Samarqand, 2025. – B.26.



1.1-rasm. Alisher Navoiyning “Arba’in” asarining nashrlari xususida²³

Arba'in tuzish an'anasining keyingi bosqichlaridan biri badiiy takomillashuv bilan bog'liq bo'lib, bu jarayonda janrning poetik imkoniyatlari sezilarli darajada kengayadi. Avvalo, she'riy shakllarning rivoji natijasida hadislar ruboiy, qit'a va boshqa qisqa nazmiy shakllarda ifodalanib, ularning estetik ta'siri ortadi. Shu bilan birga, obrazlilik kuchayib, hadis mazmuni tashbeh, isti'ora va boshqa badiiy vositalar orqali yanada jonli va ta'sirchan shaklda berila boshlaydi. Ramziy ifodaning kengayishi esa ayniqsa tasavvufiy talqinda yaqqol namoyon bo'lib, “nafs”, “qalb”, “nur” kabi tushunchalar orqali hadislar chuqurroq ma'noda ochib beriladi. Bu jarayon til va uslubning takomillashuviga ham olib kelib, matnlar sodda, ravon, ammo mazmunan serqatlam ifoda bilan

²³ Po'latova M. Sharq mumtoz adabiyotida “Arba'in” yozish an'analari. – Toshkent: Donishmand ziyo, 2021. – B.106-107.



boyiydi. Natijada estetik ta'sir kuchayib, o'quvchi nafaqat diniy bilim oladi, balki badiiy zavq ham tuyadi. Shu tariqa, poetikaning murakkablashuvi yuz berib, arba'in janri diniy matndan yuksak adabiy hodisaga aylanadi.

Alisher Navoiy "Arba'in" asari Sharq mumtoz adabiyotining yuksak bosqichida, temuriylar davri madaniy-ma'rifiy yuksalish muhitida yaratilgan bo'lib, uning yuzaga kelishi tarixiy, diniy va adabiy omillarning uzviy uyg'unligi bilan izohlanadi. XV asrda yashab ijod qilgan Navoiy o'z davrining yetuk mutafakkiri sifatida nafaqat badiiy adabiyot, balki diniy-ma'rifiy yo'nalishdagi asarlar yaratishda ham faol bo'lgan. Uning ijodida diniy-adabiy janrlar, xususan hadisga asoslangan asarlar alohida o'rin egallaydi. Bu jarayonda Navoiy o'zining ustoziga aylangan Abdurahmon Jomiy bilan yaqin ijodiy aloqada bo'lib, undan nafaqat tasavvufiy ta'limot, balki adabiy an'analarni ham o'zlashtirgan. Arba'in janri Navoiygacha arab va fors adabiyotida shakllanib ulgurgan bo'lib, u hadislarni to'plash, tartiblash va sharhlash an'anasi asosida rivojlangan edi. Navoiy ushbu tayyor an'anani qabul qilgan holda, uni yangi bosqichga olib chiqadi. Asarning yaratilishidagi asosiy maqsad hadislarni turkiy til vositasida keng ommaga yetkazish, ularni badiiy shaklda talqin etish orqali diniy-ma'rifiy g'oyalarni ommalashtirishdan iborat bo'lgan. Bu esa asarning diniy-ma'rifiy muhit bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatadi. Navoiy "Arba'in" asarida Jomiydan meros bo'lib kelgan an'analarni izchil davom ettiradi. Kompozitsion jihatdan ham asar muqaddima, asosiy qism va xotimadan iborat uch qismli tuzilmani saqlaydi. Tasavvufiy g'oyalar — komil inson, nafsni poklash, sabr va tavoze kabi tushunchalar ham Jomiy an'anasi asosida davom ettiriladi. Bu jihatlar Navoiy ijodida an'ananing uzluksizligini va uning chuqur ildizlarga ega ekanini ko'rsatadi.



1.1. jadval

Navoiy “Arba’in” asarida an’ana va novatorlik (raqamli va strukturaviy tahlil)

Tahlil yo‘nalishi	An’ana (Jomiy modeli)	Navoiydagi o‘ziga xoslik	Raqamli ko‘rsatkichlar	Ilmiy xulosa
Asosiy struktura	40 hadis asosida	40 hadis saqlangan	40 hadis	An’ana to‘liq davom ettirilgan
Kompozitsiya	Muqaddima –asosiy–xotima	Shu model saqlangan	3 qism	Strukturaviy izchillik mavjud
Hajm	Nisbatan ixcham	Kengaytirilgan poetik hajm	108 bayt	Badiiylik kuchaygan
She’riy shakl	Nazmiy talqin (ruboiy)	Qit’a ustuvor	2–4 baytli birliklar	Poetika yangilangan
Til	Forsiy	Turk (chig‘atoy)	1 til → 2 madaniyat	Milliylashuv amalga oshgan
Hadis berilishi	Arabcha + tarjima	Arabcha + badiiy talqin	2 qatlamli matn	Ilmiylik + badiiylik uyg‘un
Didaktik yo‘nalish	Axloqiy pand	Kuchli ijtimoiy talqin	100% didaktik mazmun	Ta’sir doirasi kengaygan
Tasavvufiy qatlam	Irfoniy asos	Chuqurlashtirilgan	Komil inson konsepsiyasi	Falsafiylik kuchaygan
Poetika	Oddiy talqin	Murakkab obrazlar tizimi	Ko‘p badiiy vositalar	Estetik daraja oshgan
Janr funksiyasi	Diniy-ma’rifiy	Diniy + adabiy + ijtimoiy	3 funksiyali model	Janr kengaygan
Auditoriya	Ilm ahli	Keng xalq ommasi	Mass audience	Demokratlashuv
Bayt tuzilishi	Har xil shakl	Qit’a tizimi	Juft qofiya	Strukturaviy yangilik



G'oyaviy tizim	Axloqiy	Axloqiy + ijtimoiy	Ko'p qatlamli	Mazmun chuqurlashgan
Ta'sir doirasi	Fors muhitida	Turk dunyosida	Regional → keng	Tarqalish kengaygan
Janr rivoji	Shakllangan	Yangi bosqich	Evolyutsiya	Transformatsiya yuz bergan
Natija	An'ana modeli	Mustaqil poetik tizim	108 baytli asar	Navoiy – novator

Ushbu jadvalda Navoiy “Arba’in” asarining Jomiy an’anasi bilan bog‘liqligi va undan farqli jihatlari raqamli hamda strukturaviy ko‘rsatkichlar asosida tahlil qilindi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, Navoiy an’anaviy modelni saqlagan holda, uni badiiy, til va g‘oyaviy jihatdan yangi bosqichga olib chiqqan.


Alisher Navoiy “Arba’in” asarida til masalasi alohida ahamiyat kasb etib, unda forsiy adabiy an’anadan turkiy tilga o‘tish jarayoni yaqqol namoyon bo‘ladi. Navoiy tomonidan turkiy tilning tanlanishi tasodifiy emas, balki muayyan ijtimoiy va ma’rifiy ehtiyojlar bilan bog‘liqdir. U hadislarni keng xalq ommasiga yetkazishni maqsad qilgan holda, o‘z davrida keng tarqalgan, ammo ilmiy-diniy matnlarda kamroq qo‘llanilgan turkiy til imkoniyatlarini ishga soladi. Shu orqali hadislarning turkiy talqini yuzaga kelib, ular xalq uchun tushunarli, sodda va ta’sirchan shaklda ifodalanadi. Bu jarayon asarning milliy o‘quvchiga moslashuvini ta’minlab, uning ma’rifiy ahamiyatini yanada oshiradi.

Tilning leksik va stilistik xususiyatlari ham Navoiy ijodida muhim rol o‘ynaydi. U diniy terminologiyani saqlagan holda, uni xalqona ifoda vositalari bilan uyg‘unlashtiradi. Natijada, matnda bir vaqtning o‘zida ham ilmiylik, ham badiylik mujassam bo‘ladi. Bunday yondashuv hadis mazmunining chuqurroq anglashilishiga xizmat qilib, til orqali g‘oyaviy ta’sir kuchini sezilarli darajada oshiradi. Ayniqsa, axloqiy va tasavvufiy tushunchalar turkiy til vositasida ifodalanganda, ular o‘quvchi ongiga yanada yaqin va ta’sirchan yetib boradi. Shu jihatdan qaraganda, Navoiy “Arba’in”i nafaqat diniy-adabiy asar, balki turkiy adabiy til taraqqiyotida muhim bosqichlardan biri sifatida ham baholanadi.



Asarning kompozitsion o'ziga xosligi ham uning badiiy va ilmiy qiymatini belgilovchi asosiy omillardan biridir. "Arba'in" an'anaviy tuzilmani saqlagan holda, muqaddima, asosiy qism va xotimadan iborat yaxlit tizimni tashkil etadi. Muqaddima qismida asarning yozilish sabablari va diniy ahamiyati yoritilsa, asosiy qismda 40 hadis izchil tartibda joylashtiriladi, xotimada esa yakuniy xulosalar va duoviy mazmun ifodalanadi. Bu uch qism o'zaro uzviy bog'langan bo'lib, asarning ichki mantiqiy yaxlitligini ta'minlaydi.

Navoiy "Arba'in"ining kompozitsion yangiligi, ayniqsa, she'riy shakl tanlovida yaqqol namoyon bo'ladi. Asarda hadislar asosan qit'a shaklida talqin etilib, bu janrning ixcham va lo'nda ifoda imkoniyatlari keng qo'llanadi. Har bir hadis qisqa, ammo mazmunan chuqur baytlar orqali ifodalanadi. Asarning umumiy hajmi 108 baytdan iborat bo'lib, bu uning an'anaviy namunalariga nisbatan kengroq poetik tizimga ega ekanini ko'rsatadi. Qit'a shaklida juft misralarning qofiyalanishi esa matnning ritmik va estetik ta'sirini kuchaytiradi.



XULOSA.

Arba'in janrining taraqqiyotida uning ijtimoiy va ma'naviy funksiyalarining kengayishi ham muhim bosqich hisoblanadi. Dastlab diniy-ma'rifiy vazifa bilan cheklangan ushbu janr keyinchalik jamiyat ongiga faol ta'sir ko'rsatuvchi vositaga aylangan. Hadislarning ixcham va tushunarli shaklda berilishi diniy bilimlarni keng ommaga yetkazishga xizmat qilgan bo'lsa, ularning badiiy talqini inson ongiga chuqurroq singish imkonini yaratgan. Shu sababli arba'in asarlari ma'rifiy harakatlarning muhim tarkibiy qismiga aylangan. Bundan tashqari, ayrim hollarda ular siyosiy va ijtimoiy kontekstda ham qo'llanib, adolat, halollik va ijtimoiy mas'uliyat kabi qadriyatlarni targ'ib qilgan.



Natijada, arba'in janri jamiyatning ma'naviy rivojida faol ishtirok etuvchi adabiy vosita sifatida shakllangan. Shu bilan birga, u madaniy meros sifatida ham alohida ahamiyat kasb etib, avloddan-avlodga o'tuvchi diniy va estetik qadriyatlarni mujassamlashtirgan.

Zamonaviy davrda arba'in janrining ilmiy o'rganilishi yangi bosqichga ko'tarilib, turli ilmiy maktablar tomonidan turlicha yondashuvlar asosida tadqiq etilmoqda. Sharqshunoslik doirasida olib borilgan tadqiqotlarda janrning tarixiy ildizlari, matnshunoslik xususiyatlari va diniy asoslari o'rganilsa, turk va Yevropa ilmiy an'alarida uning poetik va komparativ jihatlari tahlil qilinadi. O'zbek ilmiy maktabi vakillari esa, asosan, Navoiy va Jomiy ijodi misolida arba'in janrining milliy va tasavvufiy xususiyatlarini yoritib beradilar. Zamonaviy yondashuvlarda interdisiplinar metodlar — filologiya, dinshunoslik va madaniyatshunoslikning uyg'unligi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu esa arba'inni nafaqat adabiy janr, balki kompleks madaniy fenomen sifatida talqin qilish imkonini beradi. Hozirgi kunda janrni yangi kontekstlarda o'rganish, uning zamonaviy interpretatsiyalarini aniqlash va global adabiy jarayondagi o'rnini belgilash asosiy tadqiqot yo'nalishlari sifatida qaralmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Abu Bakr Ahmad ibn Husayn Bayhaqiy. Shu'abul imon / Muxtor ibn Ahmad Nadaviy tahriri ostida. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiyya, 2000. – J. 2. – 720 b.
2. Abulqosim Abdulkarim ibn Havozin Qushayriy. Al-arba'iyn fi tashihi-l-muomala. – Urdun: dor al-fath, 2013. – 112 b.
3. Ahmad Ahmadiy. Fors adabiyotida qirq hadis an'anasi. – Tehron: Tehron universiteti, 2005. – 254 b.
4. Arasli H. Böyük Azərbaycan şairi Füzuli. – Baku: Azərbaycan EA, 1958. – 300 b.



5. Ay S. Fuzulî'nin terceme-i hadîs-i erba'în'i (metin–dil özellikleri–sözlük): magistrlik dissertatsiyasi. – 2019. – 185 b.
6. Boltaboyev H. Mumtoz so'z qadri. – Toshkent: O'zMU, 2004. – 176 b.
7. Çakan İ. L. Hadis edebiyatı: çeşitleri, özellikleri. – İstanbul, 1985. – 288 b.
8. Eshniyazova M. B. Alisher Navoiyning ma'rifiy-adabiy asarlarida kichik lirik janrlar poetikasi: filol. fan. bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Samarqand, 2025. – 54 b.
9. Hasanxon va Husaynixon Yahyo Abdulmajid. Navoiydan chu topqaylar navoye. – T.: hilol-nashr, 2014. – 192 b.
10. Imom Navaviy. Al-arbaiyn an-navaviya. – Qohira: doru-s-salom, 2007. – 144 b.
11. Imom Ojuriy. Arbaiyn. – Riyoz: azvou-s-salaf, 2000. – 132 b.
12. Jabborov N. Ma'rifat navosi. – Toshkent: ToshDO'TAU, 2012. – 160 b.
13. Karahan A. Fuzulî'nin kırk hadis tercümesi. – İstanbul: İstanbul Üniversitesi, 1951. – 116 b.
14. Kərimov A. Füzulinin hadisi-ərbəin tərcüməsi və onun lirikası. – 2014. – 210 b.
15. Kürkçüoğlu K. E. Kırk hadis tercemesi. – Ankara: Ankara Üniversitesi, 1951. – 98 b.
16. Losensky P. Welcoming Fighani: imitation and poetic individuality. – USA: Indiana University, 1998. – 384 b.
17. Po'latova M. Sharq mumtoz adabiyotida "Arba'in" yozish an'analari. – Toshkent: Donishmand ziyo, 2021. – 136 b.



18. Subtelny Maria E. Timurids in Transition (Navoi and Jami context). – Toronto: University of Toronto, 2007. – 411 b.

19. Suvonova J. R. Arba'inlar jilosi – ahli adab imosi // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2024. – Vol. 4, No. 4 (April). – 202-210-bb.

20. Əliyeva S. Məhəmməd Füzulinin dini-təsəvvüfi görüşləri. – Bakı: AMEA, 2007. – 208 b.